

**BANK TIZIMIDA XALQARO TO'LOV TIZIMLARI BILAN
INTEGRATSIYA JARAYONLARI**

Ilmiy rahbar: Ph.D. O.Xamroyev

TDIU magistranti S.A. G'afurov

Annotatsiya: *Ushbu tezisda bank tizimining xalqaro to'lov tizimlari bilan integratsiyalashuvi, uning zamonaviy moliyaviy infratuzilma rivojlanishidagi o'rni hamda ushbu jarayonning banklar faoliyatiga ta'siri yoritilgan. Xalqaro to'lov tizimlari – SWIFT, Visa, MasterCard, UnionPay, SEPA kabi global platformalar bilan uyg'un ishlash banklar uchun transchegaraviy to'lovlarni tezkor, xavfsiz va shaffof amalga oshirish imkonini yaratadi. Integratsiya jarayonlari banklarda texnologik modernizatsiya, ISO 20022 standartiga o'tish, komplayens va xavfsizlik talablari kuchaytirilishini talab etadi, shu bilan birga bu integratsiyalashuv nafaqad banklar uchun balki butun mamlakat uchun moliyaviy hamda iqtisodiy samaradorlikga erishishga hissa qo'shadi.*

Kalit so'zlar: *xalqaro to'lovlar, bank, transchegara, korrespondent bank, kiberxavfsizlik, moliya, tizim.*

KIRISH

Globallashuv jarayonlari chuqurlashib borayotgan hozirgi sharoitda bank tizimining xalqaro to'lov tizimlari bilan integratsiyasi moliyaviy tizimning barqaror ishlashi va tashqi iqtisodiy aloqalarning samaradorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Bunda xalqaro to'lov tizimlar SWIFT, Visa, MasterCard, UnionPay, SEPA kabi platformalarning keng qo'llanilishi transchegaraviy to'lovlarni tezkor, xavfsiz va shaffof amalga oshirish imkonini yaratadi va bu banklararo kooperatsiyani yanada kuchaytiradi. Xalqaro tizimlarga integratsiya qilish banklardan IT-infratuzilmani modernizatsiya qilish, kiberxavfsizlikni kuchaytirish va ISO 20022 kabi global to'lov standartlariga moslashishni talab

qiladi.

So'nggi yillarda mamlakat banklarida xalqaro to'lov tizimlari bilan integratsiya jarayonlari jadal rivojlanib, transchegaraviy to'lovlar sifati oshib, xalqaro hamkorlik kengaymoqda. Integratsiyaning iqtisodiy natijalarga ta'siri yuqori bo'lib xalqaro to'lov tizimlari bilan uyg'unlashuv eksport-import operatsiyalarini tezlashishiga, bank mijozlariga qo'shimcha qulayliklar yaratadi hamda investitsion muhitning jozibadorligini oshishiga olib keladi. Xalqaro pul o'tkazmalari davlatlar o'rtasidagi moliyaviy oqimlarini tartibga soladi, jumladan, tovar va xizmatlar uchun to'lovlar, investitsion mablag'lar, kredit va qarzlar bo'yicha hisob-kitoblar aynan shu tizimlar orqali amalga oshiriladi.

Xalqaro to'lov tizimlarining mohiyati bu turli davlatlar o'rtasida pul mablag'larini xavfsiz, tez va standartlashtirilgan shaklda uzatish, qabul qilish va qayta ishlashni ta'minlaydigan global moliyaviy infratuzilmadir.

Ular xalqaro savdo, investitsiya, turizm, migrantlar remitenziyalari va boshqa transchegaraviy operatsiyalarning barqaror ishlashini ta'minlaydi. Xalqaro to'lov tizimlari bir davlatdagi bank yoki moliyaviy institutdan boshqa davlatdagi bankka to'lov topshiriqlarini yetkazish va qayta ishlash uchun yagona standart va protokollarni yaratadi. Bu tizimlar orqali to'lovlar ishonchli tarzda yuboriladi, tranzaksiya ma'lumotlari shifrlanadi va global moliyaviy xavfsizlik talablariga muvofiq amalga oshiriladi. Ularning mavjudligi savdo jarayonlaridagi to'lovlarni tezlashtiradi va turli valyutalar o'rtasidagi hisob-kitoblarni osonlashtiradi.

Xalqaro to'lov tizimlari global savdo va investitsion jarayonlarni uzluksiz davom ettirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy aloqani ta'minlaydi. Masalan, SWIFT tizimi banklar o'rtasida xabar almashishning eng keng tarqalgan vositasi bo'lib, millionlab to'lov operatsiyalarining markaziy qismiga aylangan.

Shuningdek, VISA, MasterCard, UnionPay bular karta orqali amalga oshiriladigan transchegaraviy to'lov tizimlarini asosiy qismi hisoblanadi. Boshqa tomondan, Western Union, MoneyGram kabi tizimlar jismoniy shaxslarning pul o'tkazmalarini tezkor yetkazishni ta'minlaydi. Xalqaro to'lov tizimlarining yana bir muhim jihati shundaki ularning xavfsizlikni ta'minlashdagi roli yuqori. Maxsus

shifrlash protokollari, AML/KYC talablarining qo'llanishi, tranzaksiyalarni real vaqt rejimida kuzatish mexanizmlari firibgarlik va noqonuniy operatsiyalarning oldini olishga qaratilgan .

Davlatlar o'rtasida moliyaviy uzatuvni muvofiqlashtirish, iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash, global savdo oqimlarini qo'llab-quvvatlash va xavfsiz moliyaviy infratuzilma yaratishdan iboratdir. ular doimiy ravishda modernizatsiya qilinib, o'tkazmalarni yanada tez, arzon va xavfsiz qilishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, chet elda mehnat qilayotgan migrantlar o'z oilalariga yuboradigan remitensiyalar iqtisodiyotga barqaror valyuta oqimini ta'minlaydi. Bu rivojlanayotgan davlatlar uchun muhim makroiqtisodiy manba sanaladi. Xalqaro o'tkazmalar tashqi savdo jarayonlarini ham qo'llab-quvvatlaydi.

Banklar o'rtasidagi aloqalar maxsus shifrlangan kanallar orqali amalga oshiriladi, har bir operatsiya qat'iy identifikatsiya qoidalariga asoslanadi. Natijada firibgarlik xavfi kamayadi va moliyaviy nazorat kuchayadi.

Xalqaro o'tkazmalarda valyuta konversiyasi ham muhim o'rin tutadi. Mablag'lar bir valyutadan boshqasiga aylantirilganda kurs farqi va komissiya xarajatlari hisobga olinadi, bu esa valyuta risklarini boshqarishni talab qiladi. Umuman olganda, xalqaro pul o'tkazmalari global moliya tizimining integratsiyasini kuchaytiradi, banklar o'rtasidagi hamkorlikni yo'lga qo'yadi va davlatlar iqtisodiyoti o'rtasida uzviy bog'liqlikni shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda integratsiyalashuv - bu milliy moliya tizimlarini global moliyaviy infratuzilmalarga ulash, transchegaraviy to'lovlarni tez, xavfsiz va samarali amalga oshirish jarayonidir. Integratsiyalashuv natijasida davlatlar o'rtasidagi pul oqimlari soddalashadi, xalqaro savdo va investitsiya jarayonlari rivojlanadi, shuningdek, iqtisodiy hamkorlik va global integratsiya kuchayadi. Natijada, xalqaro to'lov tizimlariga integratsiyalashuv global iqtisodiyotning barqaror ishlashini ta'minlaydigan muhim omilga aylanishi bilan birga, milliy moliya tizimlarining raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiy o'sishga hissa qo'shish imkonini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Boel, Paola. Payment systems – historical evolution and literature review. Sveriges Riksbank Economic Review, 2019:1.
2. Wang, Ruoyuan & Chan, Chung-Shing. A systematic literature review on payment methods in hospitality and tourism. Information Technology & Tourism, Vol.27, 2025, pp.1–27.
3. Aurazo, José; Cantú, Carlos; Frost, Jon; Kosse, Anneke; Velasquez, Carolina.
4. Faster digital payments: global and regional perspectives. BIS Papers No 152,
5. Ramayanti, R.; dkk. Exploring intention and actual use in digital payments. (2024) — maqola.